

## QADIMGI YUNONISTON MADANIYATI VA XUDOLARI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

***Mamasaidova Ruxshona Qarshi qizi***

*ruxshonamamasaidova518@gmail.com*

*Tel: +998944611363*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

***Usmonov Nurmuhammad Eshmamat o'g'li***

*nurmuhammadu06@gmail.com*

*Tel: +998903777796*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

***Zaripova Ziyoda O'razaliyevna***

*Ziyodazaripova90@gmail.com*

*Tel: +998970962919*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

***Xurramov Otabek Tolib o'g'li***

*otashbekxurramov28@gmail.com*

*Tel. +998908727203*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada asosan Qadimgi Yunoniston madaniyati va xudolari haqida ma'lumot beriladi. Biz bilamizki yer yuzidagi ilk sivilizatsiyalardan biri bu Qadimgi Yunoniston hisoblanadi. adabiyot, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morichilik, teatr, tibbiyot va shunga o'xshash sivilizatsiyon jarayonlar asosan shu hududda vujudga kelgan. Shuningdek qadimgi Yunoniston o'zining xudolari bilan mashhur bo'lgan. Maqolada shu mavzu haqida to'liq ma'lumot berishga harakat qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Qadimgi Yunoniston, teatr, xudo Zevs, Gomer, Afina, Fidiy, Iliada va Odisseya, haykaltaroshlik, Gippokrat, me'morchilik, Perikl, Poseydon.

**Аннотация:** Данная статья посвящена культуре и богам Древней Греции. Мы знаем, что одной из первых цивилизаций на земле является Древняя Греция. литература, изобразительное искусство, скульптура, архитектура, театр, медицина и подобные цивилизационные процессы создавались преимущественно в этой области. Также древняя Греция славилась своими богами. В статье делается попытка предоставить полную информацию по этой теме.

**Ключевые слова:** Древняя Греция, театр, бог Зевс, Гомер, Афина, Фидий, Илиада и Одиссея, скульптура, Гиппократ, архитектура, Перикл, Посейдон.

**Abstract.** This article focuses on the culture and gods of Ancient Greece. We know that one of the first civilizations on earth is Ancient Greece. literature, visual arts,

sculpture, architecture, theater, medicine and similar civilizational processes were created mainly in this area. Also, ancient Greece was famous for its gods. The article tries to provide complete information about this topic.

**Key words:** Ancient Greece, theater, god Zeus, Homer, Athena, Phidias, Iliad and Odyssey, sculpture, Hippocrates, architecture, Pericles, Poseidon.

Qadimgi Yunoniston jahon sivilizatsiyalar tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Aynan shu yerda O'rtayer dengizining sharqiy sohilida qadimgi sharq bilan doimiy aloqalar natijasida o'ziga xos madaniyat shakllangan va bu yerdan butun dunyoga keng yoyilgan. Ilk yunon falsafasi vakillari Miletlik Fales, Anaksimandir Kichik Osiyolik Anaksimion tabiatni, borliqni mohiyatini tushunishga harakat qildilar. Pifagor maktabining vakillari, shuningdek, Geraklit, Empidokl kabi "fiziklar" tabiatni o'rgandilar. Fales dunyoning asosi suv, Anaksimandr apeyron (boshlang'ich ibtido), Geraklit esa olov deb qaradilar. Demokrit borliq to'g'risida gapirib borliq cheksiz bo'linmas atomdan iborat degan fikrni aytdi. Platon (er. avv. 427-347-yillar), borliq abadiy, o'zgarmas bo'linmas, uni aql bilan bilish mumkin deb hisoblardi. Suqrot (taxminan er. avv. 470-399-yillar) falsafada inson muammosiga jiddiy e'tibor berdi. U insonning o'zini, o'zligini anglashga va insonning falsafasini o'rganish obyektini tashkil etadi deb ta'kidlaydi. Qadimgi Yunonistonning eng noyob adabiy yodgorligi Gomerning "Iliada" va "Odiseyya" dostonlaridir. Gomerning bu asarlari paydo bo'lgunga qadar yunon xalq og'zaki ijodidan ajoyib namunalar qo'shiqlar, ertaklar, rivoyatlar va masallar yunon adabiyotining haqiqiy poydevorlari edi. Gomerning qahramonlik dostonlari u yashagan (taxminan VII asr) davrdan oldingi er. avv. XI-IX asrlar voqealarini adabiy tasviridir. [1] Er. avv. VII asrda yashab ijod qilgan Gisiotning didaktik asarlarida o'zi yashagan davrning ijtimoiy hayoti va ziddiyatlari aks ettiriladi ("Mehnat va kunlar"). Badiiy adabiyot eng avvalo poeziya janrida rivojlandi. Poeziya siyosat bilan bog'liq edi. Mashhur shoirlar Feognit, Solon qisman Arxeoloy siyosat bilan faol shug'ullangan edilar. Hatto Alkey va Safo kabi lirik shoirlar ham siyosatga tan berganlar. Shu davrdagi Ezop masallari adabiyotda demokratik yo'nalishni aks ettirib, ijtimoiy adolatsizlikni qoralaydi. Attika teatri dionis sharafiga o'tkazilgan bayram vaqtida faqat uch kun tomosha ko'rsatilgan. Birdaniga uch tragediya qo'yilib, keyin "Satirik dramasi" yana bir mifologiyadan yengil quvnoq sahnalashtirilgan parcha berilgan. Teatr ko'rinishi ochiq havoda dumaloq maydoncha - orxestrada berilgan. Attika tragediyasining shon-shuhrati er. avv. V asrning buyuk shoirlari Esxil (er. avv. 525-456-yillar), Sofokl (er. avv. 496-406-yillar) va Yevripid (er. avv. 480-406-yillar) ijodiyoti bilan bog'liq edi. Esxil 80 ga yaqin tragediya yozdi, undan bizgacha faqat 7 tasi yetib kelgan [2]. Shuningdek Esxilning "Forslar", "Orestiya", "Zanjirband Prometey", Sofoklning "Antigona", "Shoh Edip", "Elektra", Yevripidning "Media", "Ippolit", "Vakxankalar", "Tavridagi Iffegeniya", "Fedra",

"Troyalik ayollar" kabi tragediyalari chuqur falsafiy-axloqiy mazmunga ega bo'lib, yunon fuqarolarining tarbiyasiga va dunyoqarashiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Yunon teatrda tragediyadan tashqari komediya janri ham keng tarqalgan edi. Bizgacha yetib kelgan komediyalarning ko'pchiligi Aristofan qalamiga mansubdir. Aristofonning "Tinchlik", "Axaryalilar", "Lisistrat", "Suvoriylar", "Qurbaqalar", "Bulutlar" komediyalarida er.avv. V asr yunon dunyosining siyosiy ziddiyatlari hajv qilinadi. Shu jumladan Qadimgi Yunonistonda me'morchilik san'ati ham ravnaq topgan. Afinadan tashqari Yunonistonning boshqa viloyatlarida Agrigentdagi Zevs ibodatxonasi, Pestdagi olti ustunlik Poseydon ibodatxonasi er. avv. V asrning ikkinchi yarmida ajoyib me'morchilik inshootlari bino qilindi. Ayniqsa, Perikl davrida Afinada yigirma yil ichida ulug'vor inshootlar barpo qilindi. Parfenon, Propiley, G'olib Afina va keyinroq Ereteyon kabi ioniy, korinf va doriy uslublarida qurilgan inshootlar me'morchilik san'atining mo'jizalari edi. Er.avv V asrning 70-yillaridan boshlab haykaltaroshlik san'ati Yunonistonda gullab-yashnadi. Buyuk haykaltarosh Fidiy Afina va Zevs haykallarini yaratdi. Ma'buda Afinaning 12 metrli haykalini yasashda fil suyagi va oltindan foydalanildi. Fidiyning mashhur asarlaridan biri Olimpiyalik Zevsning ulkan haykali Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasiga qo'yilgan edi. Mashhur haykaltarosh Miron "Diskobol" haykali bilan o'zini nomini abadiylashtirdi. Klassik yunon haykaltaroshligining yorqin vakillaridan biri argoslik Poliklet edi. Uning Diodumin asari noyob san'at namunasi edi. Tasviriy san'at taraqqiyotini vazalar tasviri orqali yaqqol tasavvur qilish mumkin. Bu san'at janrda sikion maktabi Afina maktabi shakllangan edi. Kundalik hayotda mifologiyadan olingan tasvirlar ko'plab uchraydi. Birinchi mashhur yunon rassomi Tasoslik Poliklet faqat to'rt rang oq, qora, qizil va sariqni ishlatgan. Klassik davrda yunon tasviriy san'atining eng mashhur namoyondalaridan biri Polignot ulkan ko'p figurali kompozitsiyalar ustasi edi. Afinalik Apollodor tasviriy san'atda yorug'lik soyasini kashf qildi. U bo'yoq bilan chizgan ko'pgina vazalar bizgacha yetib kelgan. Bu davrdagi Zevksid va Parrasiy, Apellis (Iskandarning saroy rassomi), Nikiylar tasviriy san'at janrida yorqin iz qoldirdilar. Er.avv. V asr ikkinchi yarmidan koinlar tibbiyoti o'rniga, aniq kuzatishlarga asoslangan shifokorlarning tibbiyoti vujudga keldi. Bu davrda mashhur yunon shifokori Gippokratning tibbiyot maktabi paydo bo'ldi. Gippokrat "Tibbiyotning otasi" sifatida shuhrat qozondi. Uning maktabida tabiblar tajriba, kuzatish usuliga tayanib, tez va to'g'ri tashxis qo'yishga harakat qildilar va davolashda dieta, gigeyina usullarini keng qo'lladilar. Apolloniyalik Diogen qon aylanish tizimini yaxshi o'rgandi. Krotonlik Alkmeon kasalliklarning manbai inson organizmidagi suyaklarning mutanosibligining buzilishi deb ko'rsatdi. O'sha davr tibbiy bilimlari to'g'risida 53 traktatdan iborat "Gippokrat korpusi" deb ataladigan tibbiy to'plamlar orqali ma'lumot olish mumkin. Qadimgi yunon xudolari maxalliy va umumiy xudolar toifasiga kiradi. Mahalliy xudolarga o'zaro urushlarda yordam beradi deb e'tiqod qilingan

bo'lsa, umumiy xudolar tashqi dushmanlarga qarshi kurashlarda yordam beradi deb ishonilgan. Yunonistonda alohida shaharlarning o'z xudolari bo'lganligi bu mamlakatning siyosiy tarqoqligidan xabar beradi. Gomer davrida Yunonlarning madaniy jamoasi umumiyunon xudolari hisoblanmish Olimpiya xudolariga ibodat qilishi bilan ajralib turar edi. [3] Qadimgi yunon afsonalariga ko'ra dastlab Yer (Geya) va Xaus, hayotning boshlanishi (Eros) va yer osti dunyosi (Tartar) bo'lgan. Geya yulduzli osmon Uranni tug'adi. Uran dunyoning birinchi hukmdori va Yer ma'budasi Geyani turmush o'rtog'i bo'ladi. Uran va Geyadan keyingi xudolarning II-avlodi titanlar boshlanadi. Uran o'z o'g'li, dehqonchilik xudosi titan Tironos tomonidan ag'dariladi. Kronosning bolalari Aid, Poseydon, Gestiya, Demetra, Zevs, Gera bo'ladi. Olimpning bosh xudosi Zevs osmon, chaqmoq hukmdori Poseydon yer va dengizni sug'oradigan namlik xudosi, Aid (Pluton) yerosti dunyosi hukmdori bo'ldi. Zevsning rafiqasi Gera nikoh homiysi, Gestya uy o'chog'i ma'budasi, Demetra dehqonchilik homiysi deb sig'inganlar. Zevs va Geradan o'smirlik ma'budasi Geba, urush xudosi Ares, temirchi va hunarmandlar homiysi Gefest tug'iladi. Zevsning avlodlaridan tabiatning ilk uyg'onish xudosi Apollon alohida turadi. U hamda san'at homiysi davolovchi xudo. Yunon diniy qarashi bo'yicha xudolar odamlarga o'xshab azob chekishlari, insoniy his-tuyg'uga ega bo'lishlari mumkin edi. Yunonlarning fikri bo'yicha odamlar va xudolar dunyolari o'rtasida o'tib bo'lmaydigan chegara yuq edi. Ularni bog'laydigan bo'g'in sifatida xudolar va yerdagi ayollarning aloqasi natijasida tug'ilgan qahramonlar (yarim xudolar) bo'lgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Qadimgi Yunoniston ilk sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lgan. Unda barcha sohalar shu qatori adabiyot, teatr, tasviriy san'at, tibbiyot, haykaltaroshlik, me'morchilik keng ravnaq topgan. Shuningdek yunonlar tomonidan yaratilgan ko'pgina kashfiyotlar hozirgacha mashhur hisoblanadi. Maqolada aytib o'tilganidek yunon xudolari o'sha davr uchun hayotning ajralmas bir bo'laklari hisoblangan, insonlar o'zi sig'ingan xudolarini muqaddas hisoblashgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.R. Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi" T. 2009. 279-b
- 2.R. Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi" T. 2009. 280-b
- 3.D. Urakov, A. Biykuziyev, B. Xaynazarov "Jaxon tarixi" T. 2023. 196-b